



DAVLAT ICHKI VA TASHQI QARZLARINI SAMARALI BOSHQARISH NAZARIYASI

Eshonqulov Ilhomjon Ziyadullayevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatning ichki va tashqi qarzlarini samarali boshqarish nazariyasi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlat qarzining iqtisodiyotdagi o'rni, uning barqaror rivojlanishga ta'siri, qarz yuki va unga nisbatan qo'llaniladigan boshqaruv strategiyalari ko'rib chiqilgan. Ichki va tashqi qarzlarining farqlari, ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri, foiz stavkalari, muddatlar, valyuta risklari va boshqa omillar asosida qarzlarini boshqarish modellari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonda davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, ichki qarz, tashqi qarz, qarz yuki, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, qarz strategiyasi, davlat moliyasi, xalqaro tajriba

Kirish. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Taraqqiyot strategiyasi doirasida mamlakatimizning jahon moliya tizimiga jadal integratsiyalashuvi sharoitlarida davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish o'rta va uzoq muddatli istiqbolda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan yoki uning kafolati ostida jalb qilinayotgan mablag'larning asosiy qismi mamlakatimiz aholisining yashash sharoitini yaxshilashga qaratilgan loyihalar (ichimlik suvi va barqaror elektrenergiyasi bilan ta'minlash, uy-joylar qurish, ta'lim va sog'liqni saqlash loyihalariga) bilan birga infratuzilma va bazaviy tarmoqlarni rivojlantirish loyihalariga yo'naltirilgan.

Mazkur loyihalar iqtisodiyotimizda uzoq yillar davomida investitsiyalarga bo'lgan yuqori talab shakllangan holatda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, ularni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlashtirishga qaratilgan.

Ayni vaqtda, davlat qarzini xavfsiz darajada saqlab turilishi kelgusida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri ekanligini inobatga olib, bugungi kunda davlat qarzini boshqarish tizimi samaradorligini xalqaro



andozalar asosida oshirish choralariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Jahon taraqqiyoti tendensiyalarining ko'rsatishicha, hozirgi sharoitda davlat moliyaviy ahvolini mustahkamlashning asosiy joriy va istiqboldagi rezervi ijtimoiy intellektning (sotsial kapitalning) to'planishi (jamg'arilishi) va uni iqtisodiy o'sishning innovatsion-investitsion strategiyasida foydalanish jarayonida samarali moddiylashtirish hisoblanadi. Sotsial xarakterdagi muammolarni (maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqalarni) hal etish, turmush tarzining (hayotning) sifat darajasini oshirish bilan birgalikda, iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omili va buning oqibatida esa, mamlakat joriy va istiqboldagi salohiyatini mustahkamlashning muhim shartidir.

Davlat qarzlarini o'z vaqtida qaytarish (uzish) davlatning moliyaviy ahvolini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Murakkab moliyaviy vaziyatda davlat defolt, ya'ni bir tomonlama tartibda qabul qilingan xalqaro moliya-kredit majburiyatlardan bosh tortish e'lon qilishi mumkin. Bir vaqtning o'zida davlat qarzlarini restrukturizatsiya qilish va uning qaytarilish muddatlari bo'yicha kreditorlar bilan muvofiqlashtirilgan holda choralarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish kerak.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning hozirgi bosqichida davlat qarzlarini boshqarish tizimi alohida o'rin egallaydi. Davlat moliyasi barqarorligining muhim omili – davlat qarzlarini samarali boshqarish yo'llari hisoblanadi. Davlat qarzlarini boshqarish mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismidir. Davlat qarzlarini boshqarish bu - mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot birlamchi taqsimlangandan keyingi taqsimlanish jarayonini muvofiqlashtiruvchi asosiy soha bo'lib, takror ishlab chiqilab chiqarishni uzviy davomchisi hisoblanadi. Aynan davlat qarzlarini boshqarish orqali ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ish bajaraish jarayonini doiraviy aylanishi ta'minlanadi. Shuningdek, jamiyat subyektlarini moliyaviy mablag'lar bilan uzviy ta'minlanishiga qulay sharoit tug'diradi. Moliyaviy munosabatlarni oqilona va odilona tashkil etish, rivojlantirish va takomillashtirib borishda maqsad va maqsadga samarali erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalari mavjud.

Iqtisodiyotning rivojlanishi moliya tizimining rivojlanish darajasiga, shu jumladan davlat moliyasining rivojlanish va boshqarilish darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan davlat moliyasi davlatni iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining bajarilishida, davlat mablag'larini qayta taqsimlash, moliya, transport va aloqa, shuningdek ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro andozalar asosida davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish,





davlat qarzini makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlab turish hamda jalb qilinayotgan qarzlardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishni ta'minlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining muhim elementi tashqi qarz bo'lib, mamlakat iqtisodiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Chet el kreditlari, bir tomondan, xalqaro savdoning kengayishiga, yangi texnologiyalar va sanoatning joriy qilinishiga hissa qo'shadi, boshqa tomondan ichki qarama-qarshiliklarni kuchaytiradi va moliyaviy inqiroz xavfini oshiradi. Shu munosabat bilan tashqi qarzlarni boshqarish davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Xorijiy davlatlarning tajribasi ko'rsatib turibdiki, tashqi qarzni boshqarishning samarali tizimi davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun qarz olishning zarur miqdorini tezkor jalb qilishni ta'minlashi mumkin, qarzlarni tarkibi va qarzlarga xizmat ko'rsatish jadvalini optimallashtirish orqali muhim moliyaviy resurslarni tejash va chet el valyutasida qarz olish xavfini minimallashtirish.

Ammo tahlil shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda tashqi qarzni boshqarishda tizimli yondashuv mavjud emas. Tashqi qarzlarni monitoring qilishning samarali tizimining yo'qligi va ularning mamlakat ichida joylashishini to'g'ri nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiy xavfsizligiga tahdid tug'dirdi. O'zbekiston tashqi qarzlarni jalb qilish strategiyasini qayta ko'rib chiqdi. Natijada, O'zbekistonda qabul qilingan choralar va ushbu davrda belgilangan tashqi qarzlarning o'sish sur'atlarini biroz pasaytirishga erishishimiz mumkin. Ammo respublikaning tashqi qarzlarini tarkibi uni samarali boshqarish uchun hali ham maqbul emas. Bundan tashqari, ulkan mablag'lar tashqi qarzni to'lashga yo'naltiriladi, bu respublika byudjetining eng katta moddalari xarajatlardan oshib ketadi, bu esa mamlakatimizning investitsiya salohiyati va iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Shamsiev, F. (2021). *Davlat qarzlarini: Turlari, boshqaruv usullari va iqtisodiy xavfsizlik*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2020). *Davlat qarzi va uni boshqarish bo'yicha strategik yondashuvlar*. Toshkent: Rasmiy nashr.
- 3) Karimov, S. (2019). *Ichki va tashqi qarzlarni: Nazariy va amaliy asoslar*. Toshkent: "Iqtisodiy tahlil" nashriyoti.
- 4) Soliev, S. (2020). *Davlat moliyasi va qarz boshqaruvi tizimi*. Toshkent: "Fan va taraqqiyot" nashriyoti.
- 5) IMF (International Monetary Fund). (2021). *Public Debt Management and*





Fiscal Risks. Washington, D.C.: IMF Publications.

- 6) World Bank. (2020). *Managing Public Debt: From Diagnostics to Reform Implementation*. Washington, D.C.: World Bank.
- 7) OECD. (2022). *Sovereign Borrowing Outlook in Emerging Markets*. Paris: OECD Publishing.
- 8) Tadjibayeva, D. (2021). *O'zbekiston sharoitida tashqi qarzlarni boshqarishning muammolari va yechimlari*. Toshkent: "Iqtisodiy fikr" markazi.